SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 10
2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I10Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 10 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров ҚулматАширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: sciencepr0blems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Фарманова Гулнара Комилевна*
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ........ 9-18

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ–30-ЙИЛЛАР БОШИ) ........ 19-26

*Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ........ 27-34

*Mirsoatova Sayyora Turg‘unovna*
MARKAZIY FARG‘ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ........ 35-39

*Янгибоева Дилноза Ўктамовна*
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ ........ 40-48

*Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРҒОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ........ 49-53

*Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*
O‘ZBEKISTON HUDUDIGA G‘ARB ME’MORCHILIK AN’ANALARINING KIRIB KELISHI ........ 54-58

*Ergasheva Bahridil G‘olibjonovna*
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA’NAVIY HAYOTGA TA’SIRIGA DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSIOLOGIK TAHLIL) ........ 59-65

*Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР........ 66-74

*Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN KO‘RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ........ 75-80

*Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР ........ 81-86

**8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Boltayev Nurali Shiramatovich*
AGRAR OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 87-93

*Дустова Мухайё Худайбердиевна*
РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ ........ 94-102

*Ravshanov Malik Naimovich*
METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX........ 103-108

*Xushmuradov Oman Namozovich*
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI ........ 109-115

*Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li*
DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH ........ 116-121

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

*Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна*
АКАДЕМИК ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ ........ 122-128

*Talapov Baxriddin Alijanovich*
KONSTITUTSIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA ........ 129-134

*Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich*
JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI ........ 135-140

*Солиев Икромжон Комилжонович*
РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ........ 141-147

*To'xtayev Xakim Primovich*
TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI ........ 148-153

*Уразалиева Гулшада*
СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ ........ 154-160

*Гуламова Мавжуда Ташпулатовна*
ИЖТИМОИЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ ........ 161-167

*Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li*
GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) ........ 168-172

*Quvonov Sardor Zokirovich*
MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI ........ 173-178

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Халметова Меҳрибону Гайратжоновна*
ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........ 179-186

*Abdijabbor Amanov*
MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 187-193

*Umarova Xurshida Zikiryoxonovna*
AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI ........ 194-201

*Odinayev Bekqul Imamqulovich*
LISONIY SHAXS: TA’RIF, TAHLIL, TALQIN ........ 202-210

*Jaloliddin Jo‘rayev, Jamoliddin Jo‘rayev*
“DEVONI LUG‘ATIT-TURK” VA “GULSHAN UL-ASROR”DAGI QADIMGI TURKIY SO‘ZLAR QIYOSI ........ 211-217

*Saidov Akmal Azimovich*
“TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI” YO‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ........ 218-224

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Qosimov Botirjon Ma’rufjon o‘g‘li*
SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI ........ 225-231

*Жўраев Дилмурот Мухторович*
МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР ........ 232-240

*Эшонхонов Камолхон Маматхонович*
БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР ........ 241-246

*Бўриев Одил Қобилович*
КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР ........ 247-253

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Umarzoda Shohruh Azamat o‘g‘li*
“ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI” FANI MAZMUNI VA O‘QITISHNING MAVJUD HOLATI ........ 254-259

*Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола*
ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ ........ 260-265

*Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo oʻgʻli*
BOSHLANGʻICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA OʻQITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OʻRNI ........ 266-271

*Xudoyberdiyev Gʻiyosiddin Baxtiyor oʻgʻli*
BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARDA SOGʻLOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI ........ 272-277

*Ботиров Азизбек*
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ........ 278-283

*Эшбеков Сардор Журакулович*
ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........ 284-288

*Abdullaeva Feruza Suyunovna*
KASBIY TERMINOLOGIYANI O’RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O’RNI ........ 289-293

*Ortiqov Oybek Rustamovich*
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI ........ 294-298

*Erhanova Nasiba Absayitovna*
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING “TIL VA NUTQ” MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH ........ 299-303

*Robiya Mannopova*
INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS ........ 304-308

*Qodirov Olim Odilovich*
REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 309-314

*Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna*
TARBIYA FANINI OʻQITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ........ 315-322

*Xasanova Gulsanam Xusanovna*
IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY-BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI ........ 323-328

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 10 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Erhanova Nasiba Absayitovna**
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti doktoranti
Email: erhanova2020@gmail.com

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha olib borilishi lozim bo'lgan metodik jarayonlar samaradorligini oshirish texnologiyalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** malaka, nutq, lug'at, kompetensiya, faollik markazi, jarayon, yondashuv, interfaol, samaradorlik.

**Erhanova Nasiba Absayitovna**
Doctoral student of the institute Retraining and in-service
of directors and specialist of preschol educational organizations

## INNOVATION ACTIVITIES IN THE "LANGUAGE AND SPEECH" CENTER OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

**Abstract.** This article highlights the technologies for improving the effectiveness of methodological processes for the formation of speech competencies of pupils of preschool educational organizations.

**Key words:** competence, speech, vocabulary, competence, activity center, process, approach, interactivity, efficiency.

**Эрханова Насиба Абсайитовна**
Докторант Институте переподготовки и повышения
квалификации директоров и специалистов дошкольных
образовательных организаций

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ЦЕНТРЕ «ЯЗЫК И РЕЧЬ» ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

**Аннотация.** В данной статье освещены технологии повышения эффективности методических процессов по формированию речевых компетенций воспитанников дошкольных образовательных организаций.

**Ключевые слова:** компетентность, речь, словарный запас, компетентность, центр активности, процесс, подход, интерактивность, эффективность.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N44

**Kirish.** Ta’lim jarayoniga pedagoglarning ijodiy yondashuvi XXI asr uchun zaruriy mahorat komponenti sifatida tan olingan. Ushbu qarashdan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining “Til va nutq” markazida olib borilayotgan ta’limiy jarayonlar samaradorligini oshirishda ham pedagoglarning kreativ faoliyatini tashkil etish muhim hisoblanadi. Sababi, maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga tayyorgarlik indikatorlaridan eng asosiysi – bu ravon, mazmunli va erkin nutqning shakllanganlik darajasidir. Tadqiqotimiz davomida 6-7 yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullarini amaliyotga tatbiq etishni maqsad qildik. Aynan mazkur kompetensiya O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida tarbiyalanuvchilarda faol rivojlantirilishi zarurligi belgilab berilgan.

**Adabiyotlar sharhi.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o‘stirish yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni o‘rganib chiqqanimizda F.R.Qodirova, D.R.Babayeva, G.Berdialiyeva, L.R.Mo‘minovalarning ilmiy tadqiqot obyekti aynan nutq o‘stirish bo‘yicha olib borilganiga guvoh bo‘ldik. Xususan, F.R.Qodirovaning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o‘stirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlari va yaratgan o‘quv-metodik adabiyotlar aynan shu yo‘nalishdagi ta’limiy jarayonlar samaradorligini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Xususan, F.R.Qodirova, R.M.Qodirovalarning “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi” darsligida ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachisining bolalarga ularning o‘z ona tilini o‘rgata olish qobiliyati uning kasbiy tayyorgarligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanishi ta’kidlangan. Bolaga tabiat ato qilgan barcha aqliy qobiliyatlar ona tilini o‘zlashtirish, ayniqsa uni maktabgacha yoshda o‘rganib olish tufayli yuzaga chiqadi hamda rivojlanadi, deya e’tirof etilgan [6; B.9.].

D.R.Babayevaning “Nutq o‘stirish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida shunday ta’kidlaydi: Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko‘p jihatdan quyidagi narsalarning to‘g‘ri hal etilishiga bog‘liq:

– nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar (tarbiyachi va ota-onalarning ma’lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o‘qib yoki aytib beriladigan ertaklar, qo‘shiqlar, hikoyalar);

– ta’limning didaktik materiallarni o‘zlashtirish uchun foydalaniladigan metod va usullari;

– ta’limni tashkil etish (tevarak-atrof obyektlarini saralash, shunga bog‘liq, nutq, o‘stirishni rejalashtirish);

– o‘quv materialining mazmuni, uni o‘rganishning ayrim usullari hamda ularga tegishli tamoyillarga tayanib, tarbiyachi nutq, o‘stirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni rejalashtirmog‘i zarur [3; B.23.].

G.A.Berdaliyeva “Maktabgacha ta’lim muassasalari nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish” mavzusida ilmiy izlanish olib borib, nutq o‘stirishning tarbiyalanuvchilar yangi bilimlarni o‘zlashtirishi, borliq, dunyo haqidagi tasavvurlari shakllanishidagi asosiy omil ekanligini, shaxsiy fikrlarini bayon qilishdagi bebaho kuch ekanligini ilmiy talqin etadi [4].

Turkiya maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o‘stirish masalalarini tahlil qilish chog‘ida shu davlat Maktabgacha ta’lim dasturini o‘rgandik. Unga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kichik guruhlar bilan ishlash tajribasi tatbiq etilgan. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini sensor tarbiya bilan birgalikda olib borilishiga urg‘u beriladi. Bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda ta’limiy muhit va resurslar ta’sir qiladi. Dastur bolalar rivojlanishining ijtimoiy-hissiy, til va nutq jihatdan yuqori darajaga yetishini ta’minlashni nazarda tutgani ahamiyatli. Bolalarning maktabga tayyorgarlik masalasida ham nutqi rivojlanganligi asosiy indikator sifatida qaraladi [5].

Yana bir turk tadqiqotchisi Ahmet Konja Turkiya milliy bolalik ta’lim dasturida bolalarning barcha rivojlanish sohalarini muvozanatli tarzda qo‘llab-quvvatlash belgilanganini ta’riflaydi [2]. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda bolalarning qobiliyati va xohishlari o‘yinlar vositasida yuzaga chiqarilishi uchun ta’lim markazlari tashkil etilishini yoqlaydi. Nutq o‘stirish bo‘yicha esa mazkur ta’lim dasturi faol ta’limiy muhit yaratilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Ruminiyalik tadqiqotchi A.Moraru esa nutq o‘stirish ta’limiy jarayonida o‘quv materialini loyihalash bolalarda faol nutqni samarali rivojlantirishini isbotladi. Loyihalash davomida yangi bilimlarni bolalar tizimli o‘rganishini va passiv muloqot muhitiga tushib qolmasligini aniqladi [1].

**Muhokama va xulosa.** Mazkur o‘rganishlarning barchasida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda faol nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Bizning tadqiqot ishimizda esa “Til va nutq” markazida bolalarda o‘yinlar orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning zamonaviy usullarini tadqiq qilish bo‘yicha yondashuv ustunlik qiladi.

Mavzu doirasidagi muammolarni o‘rganish maqsadida ta’limda nutq o‘stirish yo‘nalishida qo‘llaniladigan metodikalarni tahlil qildik. Bolalarning nutqini rivojlantirishdagi yondashuvning birinchi asosiy prinsipi o‘yinlarning ijtimoiy yo‘naltirilganlik tamoyilidir. O‘rganish bola ongida yakka holda sodir bo‘lmaydi. Aksincha, u o‘zaro ta’sirlar va muloqotda rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining “Til va nutq” markazida aynan shunday muhit mavjud. Ya’ni bu markazda bolalar bir-birini shakllantiradi. Ikkinchi tamoyil shundan iboratki, bola va uni o‘rab turgan muhit uning nutqi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Qachonki bu muhitdagi ta’limiy jarayon o‘yinlarga asoslanar ekan, o‘rganish va o‘rgatish ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar orqali yuzaga keladi ya’ni jarayon avtomatik ravishda yuz beradi, hech qanday zo‘riqtirish yoki majburlovlarga o‘rin qolmaydi.

Shundan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning izchil nutqini shakllantirish va faollashtirish uchun an’anaviy usul va metodlar bilan bir qatorda quyidagi innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi samarali degan to‘xtamga keldik:

1. Vizual modellashtirish texnologiyasi.
2. AKT texnologiyalari.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishda vizual modellashtirish samaralidir. Ushbu usul yordamida tarbiyachi va bola soddalashtirilgan sxematik tasvirlar – belgilar, obyektlar, hodisalar, harakatlar, tushunchalar, epizodlarni tasvirlaydilar. Vizual modellashtirish bolalarga turli xil bilimlarni yetkazish usuli sifatida ajralib turadi. Shuningdek ularning aqliy va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida muvaffaqiyatli ishlatiladi. Bunda “Qahramon yo‘qolib qoldi”, “Rasmlarning o‘rnini top”, “Qahramonlar zanjiri” o‘yinlari vizual modellashtirishga misol bo‘la oladi.

2. Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalarga kompyuterda, katta ekranda namoyish etiladigan har qanday yangi ma'lumot jozibali hisoblanadi. Zamonaviy bolalar ba'zida ma'lumotlarni oddiy eshitganidan ko'ra kompyuter texnologiyalari vositasida tezroq o'rganadilar. Birgina misol, eshitgan hikoyasi personajlarini yodidan ko'tarilishi mumkin, lekin multfilm qahramonlarini uzoq muddat eslab qoladi. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta'limda AKTdan foydalanish zarurati aniq. Nutqni rivojlantirish uchun ta'limiy jarayonda AKTdan foydalanish juda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi. Xususan, elektron resurslar yordamida badiiy asar matnini eshitish bolalarga monotonli hikoyadan ko'ra ta'sirliroqdir. Chunki elektron resursda musiqa qo'shish va qushlar, suv, shamol ovozi kabi vositalardan foydalanish matn samaradorligini ta'minlaydi. AKT asosida tinglangan matnlarga ham bolalar hozirjavoblik va qiziqish bilan javob beradi.

Quyidagi grafika (1-rasm) orqali AKTning o'quv materialini innovatsion usulda o'rgatishdagi bog'lanish tasvirlangan.




Mana shularni inobatga olgan holda aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o'stirish ta'limiy faoliyat jarayoni va nutq o'stirish faollik markazidagi jarayonlar zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda olib borilishi zarur. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti ishiga innovatsiyalarni kiritish maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning eng muhim shartidir.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, ya'ni "ko'rish – vizuallik" yordamida dunyoni anglaydigan bolalar, nimani ko'rsa o'sha narsani yaxshiroq idrok etadilar va eslab qolishadi. Ular rasmlarga soatlab qarashlari mumkin, shuningdek, ularning nutqida ko'pincha "ko'rdim, qaradim, nazar tashladim, e'tibor berdim" kabi so'zlarni eshitish mumkin. Bola nafaqat multimedia materialining syujetini eslab qoladi, balki qahramonlarning liboslarini ham batafsil tasvirlay oladi, voqea-hodisalarni eslaydi. Shuning uchun rang foni juda muhimdir. Vizuallik orqali bola qahramonlarning ijobiy yoki salbiyligi, she'rlardagi badiiy tasvirlarini ajratishni o'rganadi hamda ilgari ko'rilgan harakatlar yoki o'yinlarni osongina takrorlay oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga badiiy asarlarni vizuallik texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda vizual texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- vizual texnologiyalar tarbiyalanuvchilarga badiiy asar xususidagi axborotni to‘g‘ri tartibga solish va tahlil qilishga yordam beradi: tasvirlar, videomateriallar, mavzuga mos rasmlar katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga hissa qo‘shadi, esda saqlashni osonlashtiradi va tahlil qilishga yordam beradi;
- vizual texnologiyalar olingan ma’lumotni muayyan hodisa yoki multimedia materialiga bog‘lash imkonini beradi;
- vizual texnologiyalar katta hajmdagi axborotni tezda qamrab olish imkonini beradi;
- vizual texnologiyalar badiiy asardagi turli vaziyatlar, jarayonlar va hodisalarni takrorlash va qayta mushohada qilish imkoniyatini beradi;
- vizual texnologiyalar o‘quv materialini qiziqarli, esda qolarli tarzda taqdim etadi.

**Xulosa.** Tadqiqotimiz davomida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 6-7 yoshli (tayyorlov guruhi) bolalarining nutqini o‘stirishda an’anaviy va innovatsion usullardan foydalanish samaradorligini o‘rganish maqsadida Sirdaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi 15 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Bunda nazorat va tajriba guruhidagi natijalarni solishtirma monitoringini olib borganimizda samaradorlik yaqqol ko‘rindi.

Amaliy tajribalar jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan an’anaviy usulda o‘tilgan mashg‘ulotlardan ko‘ra innovatsion shaklda ish olib borish samaradorligini tasdiqladi. Bundan kelib chiqib, bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha zamonaviy metodlarni yaratish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb vazifa degan xulosaga keldik.

## Adabiyotlar/Литература/References


1. A.Moraru, “Maktabgacha ta’lim muassasasida tashkiliy rivojlanish dasturi”, Ruminiya, WCES, 2020
2. A.Konja, “Maktabgacha ta’lim istiqbollari”, Turkiya, Kayseri, 2021
3. Babayeva D.R. “Nutq o‘stirish metodikasi”, “Fan va texnologiya”, 2009. – 23 b.
4. G.A.Berdaliyeva, “Maktabgacha ta’lim muassasalari nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish”: pedagogika fanlari (PhD) bo‘yicha avtoreferat, T.: 2022. -y.
5. I.Karlidag, “Maktabgacha ta’lim muassasalari guruhlarida ta’limiy muhitni yaratish”, INASED, 2021
6. Qodirova F.R., Qodirova M.R. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”, Toshkent, “Istiqlol”, 2006. – 9 b.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I10Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 10 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).